

O'zbekiston Respublikasi
Axborot texnologiyalari
va kommunikatsiyalarini
rivojlantirish vazirligi

MUHAMMAD
AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI



Ministry for development of
information technologies and
communications of the
Republic of Uzbekistan

TASHKENT UNIVERSITY
OF INFORMATION
TECHNOLOGIES NAMED
AFTER MUHAMMAD
AL-KHWARIZMI

100084 Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108

Tel: 238-64-89; 238-64-15. E-mail: info@tuit.uz

964/6-01 -son

« 30 » 03 2022 yil

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va
o'rta maxsus ta'lim vazirligiga**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Vazirlik Hay'ati qarorlari ijrosi yuzasidan 2022-yil I-chorakda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni yubormoqdamiz.

Ilova: 10 varaqda.

Rektor v.b.

B.Maxkamov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU ning
 20.03.2022 yildagi 964/6-01 — sonli xatiga
 ilovâ

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETIDA
 OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI HAY'AT QARORLARINING 2022-YIL I-CHORAGI DAVOMIDA
 IJROSI TO'G'RSIDA
 MA'LUMOT

| Hay'at qarorlarida belgilangan vazifalar | TATU dan mas'ul rahbar (F.I.Sh., lavozimi, xizmat telefoni) | Ijrosi to'g'risida ma'lumot (Hay'at qarorlarida belgilangan topshiriqlarning bajarilish tartibi va erishilgan natijalar) |
|--|---|---|
| <p>28.12.2021 yil №8/1. "Oliy ta'lim tizimida 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar hamda 2022-yildagi o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish borasidagi ustuvor vazifalar to'g'risida</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ta'lim yo'nalishlari, o'quv reja va fan dasturlarini dunyoning nufuzli, top-500 talikdagi universitetlari tajribasi asosida takomillashtirish hamda xorijlik mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb qilish; - 2022-yil 20-fevralga qadar OTMlarini xalqaro ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar bazalariga doimiy a'zoligini ta'minlash hamda ulardan talaba, tadqiqotchi va o'qituvchilarning bepul foydalanishini yo'lga qo'yish; - "Raqamli universitet" loyihasini sifatli amalga oshirish uchun yetuk malakali kadrlarni ishga qabul qilish; - "Scopus", "ScienceDirect", "Web of Science" va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallar soni oshirish choralarini ko'rish; - hokimliklar bilan birgalikda talabalar turar joylarini qurish uchun joy ajratish bilan bog'liq ishlarni yanada jadallashtirish; - oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli, faol va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni belgilangan tartibda moddiy qo'llab-quvvatlash; - tyyutorlar faoliyati tashkil etilishini doimiy nazorat qilish; - 2022/2023 O'quv yiliga qadar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari | <p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev 712386562</p> | <p>Ushbu 8/1-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1445-sonli (30.12.2021.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Universitet xalqaro ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar bazalaridan shu jumladan, "ScienceDirect" va "Springer" ma'lumotlar bazasidan ro'yxatdan o'tgan. Ushbu ma'lumotlar bazasidan Universitetda talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilarning bepul foydalanishi yo'lga qo'yilgan.</p> <p>Universitetda xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida universitet professor o'qituvchilarining ilmiy natijalarini doimiy ravishda chop etish tizimli yo'lga qo'yilgan. Xususan 2021-yilda Scopus ma'lumotlar bazasida 300 ga yaqin maqolalar chop etilgan. "Scopus", "ScienceDirect", "Web of Science" va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga Universitetning 1 ta jurnali kiritilganligini va joriy yilda 2 ta ilmiy jurnal kiritilishi rejalashtirilgan.</p> <p>Universitetdagi mavjud 18 ta ta'lim yo'nalishlari, o'quv reja va fan dasturlarini dunyoning nufuzli top-500</p> |

| | | |
|---|--|--|
| <p>hamda magistratura mutaxassisliklarini hamda ularning o'quv reja va fan dasturlari (sillabuslari)ni dunyoning eng nufuzli, TOP - 500 talikdagi universitetlar bilan qiyosiy tahlili asosida qayta ishlab chiqish; talikdagi universitetlar bilan qiyosiy tahlili asosida qayta ishlab chiqish; - ta'lim yuqori samaradorlik asosida tashkil etilgan, xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholayotgan, xorijiy talabalarni o'ziga keng jalb etayotgan TOP-500 talikdagi universitetlarning o'quv reja va fan dasturlarini xalqaro kelishuv asosida xarid qilish choralarini ko'rish vazifalari yuklansin.</p> | | <p>talikdagi universitetlari tajribasi asosida takomillashtirilgan hamda xorijlik mutaxassislar o'quv jarayoniga jalb qilish ishlari olib borilmoqda;</p> <p>bo'yicha 2022-2023 o'quv yiliga qadar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklarini hamda ularning o'quv reja va fan dasturlari (sillabuslari)ni dunyoning eng nufuzli TOP-500 talikdagi universitetlar bilan qiyosiy tahlili asosida qayta ishlab chiqish ishlari davom etmoqda (ilova qilinadi).</p> |
| <p>28.12.2021 yil №8/2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"</p> | | |
| <p>2022-yil 1-martga qadar Axborot tizimining "O'quv jarayonini boshqarish", "Ilmiy jarayonni boshqarish", "Ma'muriy jarayonni boshqarish", "Moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish" qismlarini joriy etish;</p> <p>2022-yil 1-mayga qadar Axborot tizimining "Ta'lim sifatini nazorat qilish" qismini joriy etish vazifalari yuklansin.</p> | <p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev 712386562</p> | <p>Ushbu 8/2-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1447-sonli (30.12.2021.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Vazirlikka 26.02.2022-yilda 587/15-01-son hisobot xat kiritilgan, Lms.tuit.uz, uzasbo.mdm.uz, mitc.ijro.uz tizimlari ma'muriy va o'quv jarayonni foydalanilayotgani ma'lum qilingan (ilova qilinadi).</p> |
| <p>28.12.2021 yil №8/3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"</p> | | |
| <p>Joriy yilning 30-dekabr qadar oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchi va xodimlari bilan dekabr oyi uchun davlat byudjetidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarini to'liq hisob-kitob qilishni yakuniga yetkazish;</p> <p>2022-yil 1-yanvardan boshlab oliy ta'lim muassasasining byudjet va byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan shtatlar jadvalini hamda boshqa saqlash xarajatlarini yagona ko'rinishda byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantirilishini inobatga olish;</p> <p>2022-yil fevral oyiga qadar yangi tashkil etilgan Kuzatuv kengashlarida oliy ta'lim muassasasining o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini muhokama qilish va tasdiqlash;</p> | <p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev 712386562</p> | <p>Ushbu 8/3-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1444-sonli (30.12.2021.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Vazirlikka 28.01.2022-yilda 231/16-01-son hisobot xat kiritilgan, 2021-yilning 30-dekabr qadar Universitet professor-o'qituvchi va ishchi xodimlari bilan dekabr oyi uchun davlat byudjetidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarini to'liq hisob-kitob qilindi;</p> <p>joriy yilning 1-yanvardan boshlab universitetning byudjet va byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan shtatlar jadvalini hamda boshqa saqlash xarajatlarini yagona ko'rinishda byudjetdan</p> |

| | |
|---|--|
| <p>2022-yil uchun ushbu tasdiqlangan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasini yillik smetasini shakllantirish va yuqori turuvchi vazirlik va idoralarga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etish vazifalari yuklatiladi.</p> | <p>tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantirildi;</p> <p>universitet Kuzatuv kengashi tashkil etildi va unda o'rtta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-reja hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini muhokama qilish va tasdiqlash ishlari o'rnatilgan tartibda olib borilmoqda;</p> <p>universitetning 2022-yil uchun tasdiqlangan biznes-reja hamda daromadlar va xarajatlar parametrlaridan kelib chiqib, yillik smetani shakllantirish va yuqori turuvchi vazirlik va idoralarga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etish ishlari amalga oshirilgan.</p> |
| <p>28.12.2021 yil №8/6 Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini bo'yicha joriy etilgan tizim faoliyati to'g'risida</p> <p>vazirlik tomonidan ishlab chiqilayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalar majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi va tadbirkorlik faoliyatiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga hamda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihalari TSTBdan o'tkazilishini;</p> <p>Adliya vazirligi tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish va tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha joriy etilgan yangi tartibni tushuntirish bo'yicha o'tkaziladigan seminar va davra suhbatlarida muntazam ishtirok etishni;</p> <p>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish bo'yicha vazirlik xodimlarini Adliya vazirligi tomonidan tashkil etiladigan malaka oshirish o'quv kurslariga jalb etishni;</p> <p>jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalar chuqur tahlil qilinishi va unga loyihani ishlab chiquvchilar tomonidan o'zining asosli munosabatlarini bildirilishini ta'minlashni.</p> | <p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev 712386562</p> <p>Ushbu 8/6-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1448-sonli (30.12.2021.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Vazirlik tomonidan ishlab chiqilayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar, loyihalar majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilib va tadbirkorlik faoliyatiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga hamda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash tizimi o'tkazilib kelinmoqda.</p> <p>Adliya vazirligi tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish va tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha joriy etilgan yangi tartibni tushuntirish bo'yicha o'tkaziladigan seminar va davra suhbatlarida muntazam ishtirok etib kelinmoqda.</p> <p>Jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalar chuqur tahlil qilinishi va unga loyihani ishlab chiquvchilar tomonidan o'zining asosli munosabatlarini bildirilib kelinmoqda. Dalolatnomalar (ilova qilinadi).</p> |

28.12.2021 yil №8/7 Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish natijalari to'g'risida

Muntazam ravishda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyat natijalarini tahlil qilib borish, ularni o'z vaqtida elektron portfolio tizimiga joylashtirish hamda tizimga kiritilgan barcha ma'lumotlarning haqqoniyligi bo'yicha monitoring olib borish; fakultet va kafedra yig'ilishlarida rahbar va pedagog kadrlarning xorijiy davlatlarda o'rttirgan malakalarini hamda yurtimizdagi qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari yakuni bo'yicha o'zlashtirish natijalarini doimiy ravishda tahlil qilib borilishini nazorat qilish;

2022-yil yanvar oyidan boshlab "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari uchun kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish" bo'yicha qisqa muddatli trenerlar tayyorlash kursini muvaffaqiyatli yakunlangan trenerlarni jalb qilgan holda oliy ta'lim muassasasining barcha rahbar va pedagog kadrlarini kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bo'yicha 24 soatdan kam bo'lmagan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qishini tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev 712386562

Ushbu 8/7-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1446-sonli (30.12.2021.y) buyrug'i kiritilgan.

Universitetda o'quv jarayoni 2018-yildan boshlab kredit tizimiga to'liq o'tganligi sababli, universitet professor-o'qituvchilari va o'quv jarayonini tashkil etishda bevosita ishtirok etuvchi boshqarma va bo'lim boshliqlari uchun fakultetlar kesimida rejaga muvofiq seminar-treninglar bo'lib o'tildi va barcha professor-o'qituvchilar va o'quv jarayonini tashkil etishda bevosita ishtirok etuvchi boshqarma va bo'lim boshliqlariga tushuntirildi;

universitet professor-o'qituvchilari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari yuqori ilmiy-metodik saviyada o'tkazish yo'liga qo'yilgan va zarur o'quv-uslubiy ta'minot shakllantirilgan. Zamonaviy pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishini hamda har chorak yakunlari bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirish natijalarini tahlil qilib borilmoqda;

universitetdagi qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining moddiy-texnik bazasini to'liq yangilangan, tinglovchilar uchun yetarli o'quv auditoriyalar shakllantirilgan hamda boshqa viloyatlardan kelgan tinglovchilar uchun universitetning talabalar turar joylaridan yetarli o'rinlar ajratilganligini ma'lum qilamiz.

24.01.2022 1/1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining I-yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

| | | |
|--|---|--|
| <p>Uch kun muddatda o'z ish rejalarini vazirlikning ushbu buyruq bilan tasdiqlangan ish rejasiga muvofiqlashtirsin hamda har oylik shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash amaliyotini davom ettirsin.</p> | <p>Filiallar, professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar bilan ishlash boshqarmasi Sh.Doniyorov 712386567</p> | <p>Ushbu 1/1-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 115-sonli (18.02.2022.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Vazirlikka 06.01.2022-yilda 5/28-01-son xat bilan takliflar yuborilgan(ilova qilinadi).</p> <p>Universitet rahbar xodimlarining 2022-yil uchun erishilishi lozim bo'lgan faoliyat samaradorligi (KPI) ko'rsatkichlari to'g'risida Vazirlikka 23.02.2022-yilda 530/6-01-son xat yuborilgan (ilova qilinadi).</p> |
| <p>4.02.2022 2/1. Oliy, professional va o'rta maxsus ta'lim tizimida 2021-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida</p> | | |
| <p>O'n kun muddatda murojaatlar bilan ishlashning ahvoli tanqidiy muhokama qilinsin, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan qonun doirasida tegishli choralar ko'risin hamda natijasi haqida vazirlikning Ijro intizomini ta'minlash va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasiga axborot kiritilsin;</p> <p>o'n besh kun muddatda murojaatlar bilan ishlash holati tahlil qilinsin, mavjud xato va kamchiliklarning sabablari o'rganilsin, ularni bartaraf etish va murojaatlar bilan ishlashning natijadorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlansin;</p> <p>vazirlikning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini puxta va sifatli ko'rib chiqish, shaxsiy va sayyor qabullarning natijadorligini oshirish, ish yuritishni tizimli tashkil etish, tahlil va nazorat ishlarini samarali amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasining ijrosi so'zsiz ta'minlansin;</p> <p>jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalari orqali kelib tushgan murojaatlar qisqa muddatlarda har tomonlama sinchiklab ko'rib chiqilsin va qonun doirasida hal etilishi ta'minlansin hamda nazorat ishlari kuchaytirilsin;</p> <p>shaxsiy va sayyor qabullar tasdiqlangan jadvallar asosida samarali tashkil etilsin va ularda ko'tarilgan sohaviy muammolarni qonuniy hal etish bo'yicha amaliy choralar ko'risin;</p> <p>jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsiy qabul qilishga, murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning amaliy</p> | <p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev 712386562</p> | <p>Ushbu 2/1-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 141-sonli (22.02.2022.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Mazkur buyruq asosida murojaatlar bilan ishlashning natijadorligini oshirish yuzasidan chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.</p> <p>Universitetning tegishli ichki buyrug'i asosida rahbar xodimlarning jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish jadvallari va sayyor qabullar o'tkazish reja grafiklari tasdiqlangan.(ilova qilinadi)</p> <p>Universitetga cabinetpm2.gov.uz, cabinet.mtc.uz, tuit.uz tizimlari orqali kelib tushgan murojaatlar tegishligi bo'yicha ijrochi mas'ullarga mitc.ijro.uz tizimi bo'yicha yuborish va bajarilishini nazoratga olish yo'lga qo'yilgan.</p> <p>Universitet ilmiy Kengashining 2022 yil 19 fevraldagi 6/7 (719/720) - son majlisida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati tanqidiy ko'rib chiqilgan.</p> <p>Universitetning 2022 yil 29 martdagi 935/6-01 son xati bilan 2022-yilning 1-choragi yakunlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish holati hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazirlikka hisobot kiritilgan.</p> |

| | | |
|--|---|---|
| <p>yechimlarini topishga alohida e'tibor qaratilsin; haftada kamida bir marta murojaatlar bilan ishlash holati tanqidiy muhokama qilib borilsin, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar belgilansin hamda murojaatlar bilan ishlashga mas'ul xodimlarning malakasi oshirilishi ta'minlansin;</p> <p>2022-yilning 1-choragi yakunlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish holati hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazirlikka hisobot kiritilishi ta'minlansin.</p> | | |
| <p>21.02.2022 3/1 O'quv yilida oliy ta'lim muassasalari talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiylarini tayinlash to'g'risida</p> | | |
| <p>Kelgusi o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiylari tanloviga nomzodlarni tavsiya etish, ularning hujjatlar yig'ma jildlarini rasmiylashtirish va vazirlikka belgilangan muddatlarda taqdim etilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiylari va ularni tayinlash tartibi to'g'risida Nizom" talablariga qat'iy amal qilib tashkil etilishi ta'minlansin, mazkur ishga mas'ul xodimlar va ilmiy ishlar bo'yicha prorektorlarning mas'uliyatlarini oshirish choralari ko'rsin.</p> <p>Bir hafta muddatda oliy ta'lim muassasasida iqtidorli talabalarni tanlash, ular bilan tizimli ishlar olib borish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini muddati va mas'ul shaxslar ko'rsatilgan holda ishlab chiqilsin va yil davomida uning ijrosi ta'minlansin.</p> | <p>Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i G.Axmedjanova 712386540</p> | <p>Ushbu 3/1-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 203-sonli (04.03.2022.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Kelgusi o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiylari tanloviga nomzodlarni tavsiya etish, ularning hujjatlar yig'ma jildlarini rasmiylashtirish va vazirlikka belgilangan muddatlarda taqdim etilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrda 226-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiylari va ularni tayinlash tartibi to'g'risidagi Nizom" talablariga qat'iy amal qilingan holda, mas'uliyat bilan ishlarni tashkil etilishi bo'yicha vazifa yuklatildi.</p> <p>Mazkur buyruq ijrosini ta'minlash yuzasidan universitetda iqtidorli talabalarni tanlash, ular bilan tizimli ishlar olib borish va yil davomida uning ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi va rektor tomonidan tasdiqlandi(ilova qilinadi)</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyasi sohiblarini universitet Kengashi, talabalar va keng jamoatchilik orasida tanishtirib, taqdirlash ishlari tashkil etildi hamda universitetning rasmiy web-saytlari va ijtimoiy tarmoqlari orqali e'lon qilindi. Shu qatorda to'liq ma'lumot "O'zbekiston 24" telekanalida ham yoritildi.</p> |

21.02.2022 3/2. Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarini ochish to'g'risida

| | | |
|--|--|---|
| <p>Ochilayotgan oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risidagi Nizom" talablari asosida samarali faoliyatini ta'minlash, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining o'z muddatida himoya qilinishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklansin</p> | <p>Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i N.Ulyanova 712386443</p> | <p>Ushbu 3/2-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 195-sonli (03.03.2022.y) buyrug'i kiritilgan. Universitetning tasarrufidagi tegishli filiallariga 2022-yil 15-martda 773/15-01-son xat asosida o'rnatilgan tartibda topshiriqlar berilgan.(ilova qilinadi).</p> |
| <p>14.03.2022 Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'at yig'ilishi 4-son Bayoni</p> | | |
| <p>Ilmiy salohiyatni oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari indikatorlarini ishlab chiqsin va uning ijrosi yuzasidan har chorakda vazirlikka ma'lumot kiritib borsin. Oliy ta'lim muassasasining 2022-yilgi xarajatlar smetasini shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratsin: - talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'laridan oliy ta'lim muassasalarida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ya'ni to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi talabalarga stipendiyaning bazaviy miqdoriga nisbatan 50 foiz yuqori (oshirilgan) miqdorlarda stipendiya tayinlashga; - mazkur jamg'arma hisobidan "a'lo" baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan, oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shaklida davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talaba-qizlarga Qizlar uchun maxsus stipendiya tayinlashga; - yangi o'quv va ilmiy laboratoriyalar ochishga yoki sotib olishga va eskilarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlashga; - musiqa asboblari va sport anjomlari xarid qilishga; - axborot resurs markazlari faoliyatiga, kitob fondini yangilash, to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga. - oliy ta'lim muassasasida ilmiy salohiyatni oshirish bo'yicha</p> | <p>Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor K.Tashev 712386403</p> | <p>Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'laridan oliy ta'lim muassasalarida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ya'ni to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi talabalarga stipendiyaning bazaviy miqdoriga nisbatan 50 foiz yuqori (oshirilgan) miqdorlarda stipendiya tayinlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda. Jamg'arma hisobidan to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talaba-qizlarga Qizlar uchun maxsus stipendiya tayinlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2 ta yangi o'quv va ilmiy laboratoriyalar ochish hamda 2 ta laboratoriyani qaytadan zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida musiqa asboblari va sport anjomlari etarli darajada ta'minlangan; Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti axborot resurs markazini RFID qurilmalari yordamida avtomatlashtirish, kitob fondini yangilash, kutubxona mavjud resurslarni elektronlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari olib borilmoqda.</p> |

samarali natijaga erishish maqsadida fan doktorlari (DSc)ga 5-10 nafargacha falsafa doktori (PhD) yoki fan nomzodlarini, falsafa doktorlari (PhD) va fan nomzodlariga 10 nafardan magistrant va 50 nafargacha bakalavrlarni birkiritish tavsiya etilsin.

bir hafta muddatda quyidagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va ijrosi bo'yicha shaxsan rektorning mas'ulligi belgilab qo'yilsin:

- innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tanlovlarda barcha professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarning ilmiy loyihalar bilan ishtirok etishini faollashtirish va belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha Davlat dasturlari doirasida tematik mavzularni shakllantirish;

doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga dissertatsiya himoyalarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy rahbarlar va ilmiy maslahatchilarni rag'batlantirish hamda har chorakda kamida bir marta shaxsan doktorantlar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning muammolarini hal qilish tizimini yaratish choralarini ko'rsin;

- **ikki hafta muddatda** ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda doktorantlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni vazirlikka taqdim qilsin;

- oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy kengashlarga normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq, dissertatsiyalar muhokamasida noxolis ekspertiza va ko'chirmachilikka yo'l qo'yilishini oldini olish, tegishli ilmiy-tashkiliy ishlarni talab darajasida amalga oshirish hamda **oyiga kamida 2 ta** dissertatsiya himoyasini o'tkazishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratsin;

- oliy ta'lim muassasasining yo'nalishiga mos bo'lgan tegishli fan tarmoqlari bo'yicha xalqaro tan olingan nufuzli ilmiy jurnallar ro'yxatini shakllantirish va oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari uchun mazkur jumallarda ilmiy maqolalar nashr etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqsin;

- dissertatsiya himoyalari bo'yicha Ilmiy kengashlarni ko'paytirish, doktorantlarni, ilmiy darajaga ega professor-

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ilmiy salohiyatni oshirish bo'yicha samarali natijaga erishish maqsadida fan doktorlari (DSc)ga 5-10 nafargacha falsafa doktori (PhD) yoki fan nomzodlarini, falsafa doktorlari (PhD) va fan nomzodlariga 10 nafardan magistrant va 50 nafar bakalavrlar birkiritildi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tanlovlarda professor-o'qituvchilar tomonidan 6 ta Davlat dasturlari doirasida tematik mavzularini yuborildi.

Doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga doktorantlar bilan yuzma-yuz uchrashish, ularning muammolarini hal qilish tizimini yaratish ustida doimiy uchrashuvlar tashkil etib borilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda doktorantlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish doktorantlarga kam foizga kichik mikro va makro kreditlar ajratish taklifini bildiradi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida har oyda kamida 4 tadan himoyalar amalga oshirilmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida tegishli fan tarmoqlari bo'yicha xalqaro tan olingan nufuzli ilmiy jumallar ro'yxatini shakllantirilgan va ilmiy maqolalar doimiy ravishda chop etilmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2 ta Ilmiy kengash faoliyat yuritmoqda.

Doktoranturaga qabul jarayonlarini shaffof va adolatli tashkil etish bo'yicha belgilangan Nizom asosidan ish olib borilmoqda va shaffovligi ta'minlanmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida professor-o'qituvchilarning "HEMIS" axborot tizimidan foydalana bilishi (foydalanish malakasini oshirish) uchun seminar treninglar tashkil etilgan va tizimli ravishda ish olib borilmoqda.

o'qituvchilar, ilmiy rahbar va maslahatchilarning mas'uliyati oshirilishi va samarali mehnatning rag'batlantirilishini ta'minlasin;

- doktoranturaga qabul jarayonlarini shaffof va adolatli tashkil etish choralarini ko'rsin;
- professor-o'qituvchilarning "HEMIS" axborot tizimidan foydalana bilishi (foydalanish malakasini oshirish) uchun seminar treninglar tashkil etsin;
- professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun "Scopus", "Web of Science" va boshqa xalqaro nufuzli ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida indekslanuvchi nufuzli ma'lumotlar nashr etish yuzasidan mutaxassislar ishtirokida seminar-treninglar o'tkazsin;
- innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan Davlat ilmiy dasturlari doirasida ilmiy loyihalar tanlovlarida professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarning ishtirokini faollashtirish choralarini ko'rsin;
- ilmiy loyihalar, xalqaro loyihalar, xo'jalik shartnomalarida talabalar ishtirokini kamida ikki martaga oshirish orqali ularning bandligini ta'minlash va maqsadli ravishda ilmiy faoliyatga jalb qilishni ta'minlasin;

respublika oliy ta'lim muassasalari ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlari, filiallar direktorlari o'rinbosarlarining KPI ko'rsatkichi monitoringini muntazam yuritish tartibini joriy etsin hamda ularning

ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini belgilash orqali ish haqlariga ustamalar belgilash choralarini ko'rsin;

- ilmiy laboratoriyalarni akkreditatsiyaga tayyorlash, laboratoriya xizmatlarini kengaytirish hamda zarur bo'lgan laboratoriyalarni tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish maqsadida har yili kerakli miqdorlarda mablag'lar ajratilishni ta'minlasin;
- intellektual mulk obyektlari bo'yicha patentlar va mualliflik guvohnomalari sonini oshirish hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada kuchaytirish, texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari faoliyatini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha chora-

Professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun "Scopus", "Web of Science" va boshqa xalqaro nufuzli ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida indekslanuvchi nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqola nashr etish yuzasidan Xalqaro texnik ekspertlar tomonidan doimiy seminarlar tashkil etil boriladi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan Davlat ilmiy dasturlari doirasida Universitetning professor o'qituvchilari doimiy qatnashib keladi. Buning natijasida 17 ta ilmiy loyiha Universitetda mavjud.

Ilmiy loyihalar, xalqaro loyihalar, xo'jalik shartnomalarida talabalar ishtirokini kamida ikki martaga oshirish rejasi ishlar chiqildi.

Universitet professor o'qituvchilari KPI ko'rsatkichi monitoringini tizimi ishlab chiqilgan muntazam yuritish tartibini joriy etilgan.

Ilmiy laboratoriyalarni akkreditatsiyaga tayyorlash, laboratoriya xizmatlarini faoliyatini rivojlantirish bo'yicha universitet talaba yoshlarning ilmiy laboratoriyalardagi faoliyatini yuksaltirish bo'yicha zarur rejalar ishlab chiqilgan va talabalarning ishlanmalarini rag'batlantirish bo'yicha etarli darajada mablag'lar jalb etilgan.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida indeksatsiyalangan ilmiy jurnallarda xalqaro hammualliflar ishtirokida maqolalar tayyorlash va chop etish bo'yicha Memorandum imzolangan xorijiy universitet professor o'qituvchilari bilan xamkorlik o'rnatilgan.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida inkubatsiya markazi tashkil etilgan hamda startup loyihalarni bajarilishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan hamda vazirlikka taqdim etilgan.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida yaratilgan ishlanmalar

tadbirlar ishlab chiqsin va amalga oshirsin;

- xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida indeksatsiyalangan ilmiy jurnallarda xalqaro hammualliflar (qo'shma ta'lim dasturlari, hamkor universitetlar vakillari) ishtirokida maqolalar tayyorlash va chop etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda xalqaro ilmiy kollaboratsiyani kuchaytirish choralarini ko'rsin;

- oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan inkubatsiya markazlarida akseleratsiya va startap loyihalarni bajarilishi bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda homiy tashkilotlar ko'magida loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etishni jadallastirsin;

- oliy ta'lim muassasalari tomonidan yaratilgan ishlanmalar bo'yicha manfaatdor ishlab chiqarish korxonalari bilan xo'jalik shartnomalarini tuzish va ularni tijoratlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin;

- shuningdek, har yilgi **"Innoweek"** innovatsion g'oyalar haftalik ko'rgazmasida faol ishtirok etilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

Har bir oliy ta'lim muassasi o'zlarining ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatlarida yuqori ko'rsatkichlarga erishishning samarali usullardan foydalanish bo'yicha **bir hafta muddatda** taklif kiritilsin.

Oliy ta'lim muassasalarida ilm-fan va innovatsiyalar bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijalari bo'yicha **yiliga 2-marta kengaytirilgan yig'ilishlarda muhokama qilinishi** va rahbarlar faoliyatiga baho berilishi belgilab qo'yilsin.

Rektor v.b.

B.Maxkamov